

O'ZBEKISTONDAGI OLIY TA'LIM MUASSASALARI HAQIDA

Ne'matova Shohsanam Poziljon qizi

Andijon davlat chet tillari institute Roman-german va slavyan tillari fakulteti

Xorijiy til va adabiyoti Nemis tili yo'nalishi 101-guruh talabasi

*Ilmiy maslahatchi: **Kabulova Umida***

Annotatsiya: Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasi Oliy Ta'lim muassasalari va Jahon universitetlari o'rtasidagi farq va tafovutlar, ta'lim jarayonidagi farq va o'zgarishlar, hozirgi kunda yaratib berilayotgan shart-sharoitlar hamda yoshlarimizni ushbu imkoniyatlardan to'laqonli foydalana olishi bo'yicha amalga oshirilayotgan o'zgarishlar haqida ma'lumotlar berilgan.

Kalit so'zlar: milliy madaniyat, oliy ta'lim muassasalar faoliyati, jahon universitetlari, masofaviy ta'lim, yoshlarga yaratilayotgan shart-sharoitlar, sof raqobat, jahon universitetlar reytingi.

Аннотация: Данная статья направлена на то, чтобы узнать о различиях и различиях между высшими учебными заведениями Республики Узбекистан и университетами мира, различиях и изменениях в образовательном процессе, условиях, которые создаются в настоящее время, а также о происходящих изменениях в том, как наша молодежь может в полной мере использовать эти возможности.

Ключевые слова: национальная культура, деятельность высших учебных заведений, университеты мира, дистанционное образование, условия, созданные для молодежи, чистая конкуренция, рейтинг университетов мира.

Annotation: This article aims to find out about the differences and differences between higher education institutions and World Universities of the Republic of Uzbekistan, the difference and changes in the educational structure, the conditions currently being created and the changes that are being implemented in order to make full use of these opportunities for our youth.

Key words: national culture, activities of higher educational institutions, universities of the world, distance education, conditions created for youth, pure competition, world university rankings.

Qisqa muddatda maktabgacha ta'lim, oliy va o'rta maxsus ta'lim tizimida muhim o'zgarishlar amalga oshirildi. "Yangi O'zbekiston – maktab ostonasidan boshlanadi" degan shior asosida maktab ta'limini rivojlantirish umumxalq harakatiga aylandi¹.

¹ Xalq so'zi web sahifasi (<https://xs.uz/uz/post/mamlakatimiz-maktablarini-bitiruvchi-ogil-qizlarimizga>)

Ma'lumki, O'zbekistonda Oliy ta'lim muassasalari o'quvchi yoshlar uchun ta'lim olishlarida Prezidentimiz tomonidan hozirgi kun yoshlarini oldiga qo'ygan ulkan maqsadlariga erishishning eng muhim omili sifatida ta'lim-tarbiya sohasiga juda katta ahamiyat bermoqda.

Hozirgi kunda Iqtisodiyotning turli soha va tarmoqlaridagi ehtiyojdan kelib chiqib, so'nggi 5 yilda bakalavriat bosqichida 134 ta ta'lim yo'nalishi, magistraturada 147 ta mutaxassislik yangidan tashkil etildi.

Shu bilan bir qatorda yurtimizdagi oliy ta'lim muassasalari sonining ortib bormoqda. Bu jarayonda xususiy oliy ta'lim muassasalari ulushining yuqorilayotgani, bitiruvchilarning oliy ta'lim bilan qamrov darajasi 9 foizdan 39 foizga oshgani e'tiborga molik. Agar bu ko'rsatkich raqamlarda tahlil qilinsa, bakalavr bosqichiga qabul 2016-yilda 58 ming nafarni tashkil etgan bo'lsa, 2022-yilda 223 ming nafarga yoki 3,8 martaga ko'paygan. Magistraturaga qabul ko'rsatkichining 5 mingdan 16 ming nafarga yetgani yoki 3,2 martaga ko'paygan. Bu kabi tahlilni, o'sishni ta'limning barcha tizimlari uchun, xususan, maktabgacha va maktab ta'limidagi o'zgarishlar misolida ham keltirish mumkin.

Oliy ta'lim muassasalarida 2021-2022-o'quv yilidan boshlab bosqichma-bosqich masofaviy ta'lim shaklida ham kadrlar tayyorlash yo'lga qo'yiladi.

Hozirgi kunda yoshlarimiz uchun bir vaqtning o'zida 5 tagacha oliy ta'lim muassasasida tanlovlarda ishtirok etish imkoniyati mavjud².

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining oliy va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limini rivojlantirish bo'yicha oldiga qo'ygan va amaldagi asosiy vazifalari.

oliy va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi sohasida zamonaviy bilim va yuksak ma'naviy-axloqiy fazilatlariga ega, mustaqil fikrleydigan yuqori malakali kadrlar tayyorlashga qaratilgan yagona davlat siyosatini amalga oshirish;³

ta'limning yangi pedagogik texnologiyalari va o'qitish uslublarini joriy etishning xalqaro amaliyotga muvofiq ta'lim jarayonini tashkil etish, o'quv rejalari va fan dasturlarini takomillashtirish, o'qitishning zamonaviy shakllari va axborot-kommunikatsiya texnologiya vositalarini joriy etgan holda o'quv jarayonini sifat jihatidan yangilash va boshqa bir nechta yo'nalishlari mavjud... ;

zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va chet tillarini chuqur o'zlashtirgan kadrlarni tayyorlashning yuqori darajasi va sifatini ta'minlash; idoraviy mansubligidan qat'i nazar barcha oliy va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari

² O'zbekiston milliy axborot agentligi web sahifasi (<https://uza.uz/oz/posts/oliy-talimdagi-akademik-erkinlik-imkoniyat-va-masuliyat-qanday-samara-beradi> 499276); uz.wikipedia.org web portal

³ Daryo.uz web sahifasi (<https://daryo.uz/2023/07/07/ozbekistondagi-12-ta-otm-buyuk-britaniyaning-yosh-universitetlar-reytingidan-orin-oldi>)

faoliyatini muvofiqlashtirish, o'quv-pedagogik va ilmiy-uslubiy rahbarlikni amalga oshirish, mutaxassislar tayyorlash sifati, ta'lim mazmuni va darajasini davlat ta'lim standartlari va malaka talablariga mosligini ta'minlash.

O'zbekiston OTMlari xalqaro reytinglarda

2019-yilning oktyabrida prezident Shavkat Mirziyoyev 2030-yilgacha oliy ta'lim tizimini rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlovchi qarorga imzo chekkan edi. Unga ko'ra, O'zbekiston Milliy universiteti va Samarqand davlat universitetini ilg'or universitetlarga aylantirish va ulardagi ta'lim darajasini dunyoning 500 ta eng yaxshi universitetlari qatoriga qo'shish rejalashtirilgan.

2020-yilda O'zbekistonning to'rtta universiteti Sharqiy Yevropa va Markaziy Osiyoning eng yaxshi oliygohlari qatoriga kirgan, 2021-yilning sentabrida esa O'zbekistondagi 10 ta OTM dunyoning yetakchi universitetlari reytingiga kirish uchun nomzod sifatida tanlab olingan edi.

2023-yil mart oxirlarida O'zbekiston milliy universiteti va "Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari" Milliy tadqiqot universiteti 4 ta (zamonaviy tillar, matematika, fizika va astronomiya, atrof-muhit) fan bo'yicha top-500 oliy ta'lim muassasalari qatoridan o'rin egallagan⁴.

Xulosa qilib aytish mumkinki hozirgi kundagi oliy ta'lim muassasalarimiz jahon universitetlaridan har tamonlama orta qolmasligini yaqqol ko'rishimiz mumkin.

Internet sahifalari:

1. Xalq so'zi web sahifasi (<https://xs.uz/uz/post/mamlakatimiz-maktablarini-bitiruvchi-ogil-qizlarimizga>)
2. O'zbekiston milliy axborot agentligi web sahifasi (https://uza.uz/oz/posts/oliy-talimdagi-akademik-erkinlik-imkoniyat-va-masuliyat-qanday-samara-beradi_499276)
3. uz.wikipedia.org web portal
4. Daryo.uz web sahifasi (<https://daryo.uz/2023/07/07/ozbekistondagi-12-ta-otm-buyuk-britaniyaning-yosh-universitetlar-reytingidan-orin-oldi>)
5. Kun.uz web sahifasi (<https://kun.uz/news/2024/04/17/fanlar-boyicha-jahon-universitetlari-reytingi-elon-qilindi>)

⁴ Kun.uz web sahifasi (<https://kun.uz/news/2024/04/17/fanlar-boyicha-jahon-universitetlari-reytingi-elon-qilindi>)